


“O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan 2018 yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijalari to‘g‘risida

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, moliyaviy ahvolni yaxshilash, davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘lovlarni amalga oshirishda ijobiy natijalarga erishildi.


2018 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘shish sur‘ati 109,1 foizni, xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish o‘shish sur‘ati 107,3 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Natura ko‘rinishida esa, un ishlab chiqarish 100,3 foizni, omixta yem 100,1 foizni, non va non mahsulotlari 112,4 foizni va makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 104,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.


2014-2018-yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2018-yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2018-yillarda omixta yem ishlab chiqarish dinamikasi



2018 yilda jami 646 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutib, bu rejaga nisbatan 105,6 foizni tashkil etadi.

2018 yilda kutilayotgan ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘sinh sur‘ati%
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	109,1
Xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish	107,3
Un	100,3
Omixta yem	100,1
Non va non mahsulotlari	112,4
Makaron mahsulotlari	104,4

2018 yilda dasturga asosan yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari

	Soni	%
Kasanachilik asosida	514	106,6
Investitsiya va tarmoq dasturlari buyicha	132	101,5
Jami yaratilgan ish o‘rinlari	646	105,6

2018 yil investitsiya dasturlari doirasida:

“Surxondaryo don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati tegirmon sexi “Erkan Makina” kompaniyasining (Turkiya) kunlik ishlab chiqarish quvvati 300 tonnabo‘lgan texnologik uskunalari;

“Dunyo-M” aksiyadorlik jamiyati tegirmon sexi “Makina Enerji” kompaniyasining (Turkiya) kunlik ishlab chiqarish quvvati 300 tonna bo‘lgan texnologik uskunalari;

“Samarqand don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati tegirmon sexi “Alapala” kompaniyasining (Turkiya) kunlik ishlab chiqarish quvvati 250 tonna bo‘lgan texnologik uskunalari;

“Bag‘dod don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati tegirmon sexi “Alapala” kompaniyasining (Turkiya) kunlik ishlab chiqarish quvvati 110 tonna bo‘lgan texnologik uskunalari;

“Bekobod un zavodi” aksiyadorlik jamiyati tegirmon sexi “Mogilev-Podolskiy” kompaniyasining (Ukraina) kunlik ishlab chiqarish quvvati 50 tonna bo‘lgan texnologik uskunalari hisobiga modernizatsiya qilindi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan don korxonalarida esa “Uzbek China trade” kompaniyasi (Xitoy) texnologiyalari asosida 4 ta guruch sexi ishga tushirildi.